



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-oktabr 2021
Ma'qullandi: 10- oktabr 2021
Chop etildi: 15- oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Sifat so'z turkumi, sintaktik xususiyatlar, izofa, aniqlovchi, aniqlanmish, morfologik xususiyatlar, egalik sifatlari

Barcha tillar tilshunosligida belgi bildiruvchi so'zlar turkumi sifat deyiladi. Ammo belgi bildirish xususiyati sifatdan tashqari ravish so'z turkumiga ham xos. Dastlab ravishlar alohida ajratilmagan. Sifat so'z turkumi tarkibida o'rganib ketilgan. Bunga yuqorida aytganimizdek ikkala turkumning ham belgi bildirish xususiyati sabab bo'lgan. Demak, ismning ma'nosini aniqlab, to'ldirib keladigan so'zlar sifat, fe'l ma'nosini aniqlab, to'ldirib keladigan so'zlar esa ravish deyiladi. Sifat tomonidan vasf qilingan ism bo'lsa موصوف (mavsof) (حسن انوری، حسن احمدی گیوی «دستور زبان فارسی» 110 جلد 1 صفحہ deb nomlanadi:

قلمایز بیباگل

موصوفتصفتصفتوصوف

Agarda sifat harakat-holat bildiruvchi so'zlarning belgisini ifodalab kelsa, ravish so'z turkumi hisoblanadi va u قید مشترک (qeyd-e mo'shtarak) deb

SIFATLARNING SINTAKTIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xasanova Nargiza Abubakr qizi

TDSHU, 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5566803>

ANNOTATSIYA

Maqola fors tili grammatika kitoblari tahlili asosida ulardagi sifat so'z turkumi sintaktik va morfologik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Tahlil davomida, avvalo, dasturlarda berilgan sintaktik o'ziga xosliklar tadqiq etilib, sifatlarning so'z birikmasi, gap bo'laklarini hosil qilishdagi faol ishtiroki yorqin ifodalab berilgan. Morfologik jihatdan esa uning ma'no guruhlari xususidagi qarashlar o'rganilib, umumiy tarzda bayon etilgan. Ushbu tahlil jarayoni maqolaning katta ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

(پنج استاد «دستور زبان فارسی» صفحه nomlanadi (189).

علی خوب کار می کند.

Sifat va ismning bir-biriga bog'lanishi aniqlovchi-aniqlanmish munosabatini yuzaga keltiradi. Bunda aniqlovchi مضاف الیه (mo'zof-e eleyh), aniqlanmish مضاف (mo'zof) deb nomlanadi hamda ular اضافہ (izofa) (Malik Abdusamatov: "Fors tili" Oliy o'quv yurtlari talabarlari uchun darslik, 76-bet) orqali birikma hosil qiladi. Quyida keltirilgan gapda izofiy birikmalarning yorqin namunasini ko'rib o'tamiz:

بخشایشگر بخشایشنده ایزدبنام

ستايش باد یزدان دانا و توانا را کی آفریدگار جهانست و داننده آشکار و پنهان و راننده چرخ و زمانست و دارنده جانور است و آورنده بهار و خزانست و درود بر همه پیغمبران ایزد و همه فرشتگان و همه پاکان کی اختیار و اولیای خدای عز و جل بودند و خلق را براستی پند دادند و به یزدان راه نمودند و فرش باطل را بر نوشتند و



بساط حق بگستردند و آفرین بر همهء نیکوکاران کی از هوای این جهان پرهیز کردند و توشهء آن جهان بر داشتند و رضای ایزد نگه داشتند.

فارسی قدیمکتاب
سعیدینگهت

Sifatlarning gap tarkibida kelishi o'ziga xos xususiyatga ega va turli vazifalarni bajaradi. Ular o'z hokim qismiga nisbatan turlicha joylashadi:

a) سifat oldidan ism kelib kasrali bo'ladi va sifat ismni tavsiflash uchun xizmat qiladi. Masalan: اطاق بزرگ

Ko'rinib turibdiki, mazkur birikmada sifat o'z aniqlanishining ma'nosini ochib berish, ya'ni hajmini ko'rsatish uchun xizmat qilgan.

b) مسند (mo'snad (kesim)) مسند اضافه boshqa so'zlarni (bo'laklarni) o'ziga ergashtirib keluvchi sifat.

Masalan:

اطاق بزرگ است.

(شعریعت محمدجواد «دستور زبان فارسی»

صفحه 286)

Ushbu jumlada (bo'zo'rg) (bo'zo'rg) kalimasi (ergashtiruvchi; mo'snad kesim)) hisoblanadi.

Bu ikki ko'rinishdan tashqari ham sifatning qo'llanish holatlari mavjud. Bunda u boshqa turkumga ko'chadi va o'sha turkum bajargan gap bo'lagi vazifasida keladi:

a) Sifatning ravishlashishi:

Yuqorida to'xtalganimiz sifatning ravish turkumiga ko'chishidir. موصوف (mavsof)ga emas fe'lga bog'lanib kelishida namoyon bo'ladi:

Masalan:

او خوب می نویسد.

Bunda (xub (yaxshi)) sifati می (minavisad (yozmoq)) fe'lga bog'langan va ravishga ko'chgan.

b) Sifatlarning otlashishi: Sifatning ism o'rnida kelishidan hosil bo'ladi.

Masalan:

از بد پرهیز کن.

(شعریعت محمدجواد «دستور زبان فارسی»

صفحه 287)

Sifatning ma'no guruhlariga qarab ism bilan birikma hosil qilib qay tartibda kelishining xoslangan ko'rinishlari mavjud. Jumladan, صفت فاعلی (sefat-e foeli (egalik sifatlari)) موصوف (mavsof) bilan 4 xil usulda bog'lanadi:

(پنج استاد «دستور زبان فارسی» صفحات 50-

49)

a) Izofali holatda –sifat ismdan oldin kelib kasra vositasida izofiy birikma hosil qiladi:

Masalan:

فزاینده باد اوردگاه فشاننده خوب زابر سیاہ

"فردوسی"

b) Sifat kasrasiz o'z aniqlanishiga bog'lanib keladi:

جهاندار محمود گیرنده شهر ز شادی به هر کس

رساننده بهر

"فردوسی"

c) Sifat hech qanday vositasiz to'g'ridan to'g'ri ism bilan bog'lanadi:

Masalan:

منم گفت یزدان پرستنده شاه مرا ایزد پاک داد این

کلاه

«دقیقی»

d) Sifat ismdan so'ng «-ande) (-ande) shaklisiz keladi.

Masalan:

سرفراز - سرفرازنده

گردن فراز - گردن فرازنده

Dastlabki ikki ko'rinishda sifat ismdan oldin, keying ikkitasida esa ismdan so'ng joylashadi. Mazkur holatlar sifat sintaktik tabiatining rang-barangligini ko'rsatadi.



Sifatning morfologik xususiyatlari haqida gapirilganda, avvalo, ularning bayoni dasturlarda turlicha ifoda etilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ma'no guruhlari ham.

Ushbu so'z turkumining ma'noviy guruhlari to'g'risida grammatika kitoblarida xilma-xil qarashlar mavjud. Xususan, «پنج استاد» (Panjustod)da ular quyidagicha 4 guruhga ajratiladi:

- صفت فاعلی
- صفت مفعولی
- صفت تفضیلی
- صفت نسبی

Shuningdek, شعریعت محمدجواد dasturida, فاعلی، مفعولی، نسبی، توسیفی، شمارشی، dasturida، اشاره ای

Hasan Anvariyyva Hasan Ahmadiylarning dasturida sifatning quyidagi ma'no guruhlari ajratilgan:

- بینی
- اشاره ای
- شمارشی
- پرسشی
- تعجبی
- میهم

ساده، فاعلی، مفعولی، o'z o'rnida، صفت بیانی، لیاقت kabi ichki turlarga bo'linadi.

Biz ularni umumlashtirgan holda ma'no guruhining har bir turiga alohida to'xtalib o'tamiz.

Sifat ma'noviy turlaridan biri صفت فاعلی ya'ni egalik sifatlaridir. Egalik sifati shaxs yo predmetga nisbatan egalik shaklini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan,

دارنده، دانا...

Egalik sifatleri 7 usulda hosil qilinadi:

1 Fe'ning hozirgi zamon shakli va «نده» qo'shimchasi bilan. Masalan,

گیرنده...

2 Hozirgi zamon fe'l negizi va «آن» shakli bilan. Masalan,

گیران...

3 Hozirgi zamon fe'l negizi va «ا» bilan. Masalan.

دانا...

4 Fe'ning o'tgan (ba'zida hozirgi) zamon negizi «ار» shakli bilan. Masalan.

خریدار...

5 Fe'ning o'tgan yoki hozirgi zamon negizi «گار» shakli bilan. Masalan.

اموزگار...

6 Ot, sifat yoki fe'l negizi «گر» shaklibilan. Masalan.

دادگر...

7 Ot ba'zi hollarda sifat va fe'l negizi «کار» shakli bilan. Masalan,

ستمکار

صفت مفعولی

Ish-harakat yoki holat shaxs yoki predmetning ustida bajarilganligini bildiradi (O'zbek tilidagi o'tgan zamon sifatdoshiga mos keladi). Masalan,

پوشیده...

o'tgan zamon fe'l negizi va «ه» shakli bilan hosil qilinadi.

sifatning qiyosiy darajasi.

Asliy sifatga «تر» shaklini qo'shish orqali hosil qilinadi:

بهتر...

nisbiy sifatlar shaxs yoki predmetning biror narsa yoki joyga nisbatini ifodalab keladi.

4 xil usuldahosilqilinadi:

1 So'z oxiriga «ی» shaklini qo'shish bilan:

آسمانی...

2 So'z oxiriga «ه» shaklini qo'shish bilan:

یک ساله...

3 «ین» shaklini so'z oxiriga qo'shish bilan:

گندمین...

4 So'z oxiriga «گان» shaklini qo'shish bilan:



پدراگان...
صفت لياقت

Shaxs yoki predmetning salohiyatini bildirib keladi. Ushbu sifat «ى» qo'shimchasini fe'lning infinitive shakli oxiriga qo'shib yasaladi. Masalan:

ديدنى، شنيدنى...
صفت تعجبى

Ushbu sifatlar ot bilan birga kelib uning qandayligi yoki miqdori bo'yicha so'zlovchining taajjubini bildirib keladi. Taajjub sifati so'zlovchining hayajonini bildiruvchi maxsus ohangda aytiladi:

چه، چه قدر، عجب...

(mavhum, noaniqlik sifati) صفت مبهم

Otning turini, qandayligi, sanog'i va yoki miqdorini noaniq tarzda ifodalab keladi. Masalan:

هر، فلان، چندین...

(so'roq sifati) صفت پرسشی

So'roq sifati shunday sifatdirki u bilan otning miqdori, qandayligi, turi haqida so'raladi (o'zbek tilidagi so'roq olmoshlari kabi):

چه، چه گونه، چند...

(sanoq sifatlari) صفت شمارشی

Bular otning sanog'i va miqdorini bildirib keladi. Masalan, چهار تا دفتر (to'rt tadaftar) deganda to'rt soni otni aniqlab sifat vazifasini bajarib keladi. Uning 4 xil ma'no turi mavjud:

1 صفت شمارشی اصلی (o'zbek tilidagi sanoq sonlarga teng):

یک، دو، سه...

2 صفت شمارشی ترتیبی (o'zbek tilidagi tartibs onlarga teng):

چهارم، پنجم...

3 صفت شمارشی کسری (o'zbek tilidagi kasr sonlarga teng):

سه چهارم، پنج ششم...

4 صفت شمارشی توزیعی (o'zbek tilidagi taqsim sonlarga teng):

یک، دو، دو، چهار چهار...

(حسن انوری، حسن احمدی گیوی «دستور زبان»)

فارسی» جلد 1 صفحات 118-119

صفت اشاره ای

این va آن ko'rsatish olmoshlari ot bilan birga kelganda otni aniqlab ko'rsatish sifatlari vazifasini bajarib keladi. Masalan:

این گل زیبا را از باغ چیدم.

Ko'p uchraydigan ko'rsatish sifatlari:

این، آن، همین، همان...

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sifat sintaktik jihatdan ham morfologik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Sintaktik jihatdan so'z birikmasida :

1) Sifat birikmada aniqlovchi aniqlanmish munosabatida bo'ladi;

2) Aniqlovchi aniqlanmish munosabatida o'z aniqlanmishidan oldin ham keyin ham kelishi mumkin.

Gapda:

1) Ism bilan bog'lanib sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi.

2) Kesim oldida joylashib hol vazifasini bajaradi.

3) Otlashib ega, qaratqichli aniqlovchi, to'diruvchi, undalma vazifalarida kelishi mumkin.

4) Ot kesimli soda yig'iq gapning kesimi vazifasida keladi. Bunda u ismdan keyin keladi va ismlarning munosabat shakllarini qabul qiladi.

Morfologik jihatdan sifatning ma'no guruhlari xususida ma'lum bir to'xtamga kelinmagan. Ularning tarkibi turli olimlarning qarashlari daturlicha ifodalangan va soni ham oz-ko'pligi jihatidan farq qiladi. O'zbek tilidan farqli o'laroq bu guruhlar tarkibida son va olmosh so'z turkumlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bunda:

son so'z turkumiga son صفت شمارشی

esa olmosh so'z صفت پرسشی turkumiga xos.



Bundan tashqari sifatdosh va daraja shaklini olgan sifatlar ham ma'no guruhlari tarkibiga kiritilgan.

Shuningdek konversiya hodisasi tufayli sifat ravish so'z turkumiga o'tish xususiyatiga ega.

Ma'lum bo'ladiki, fors tilidagi sifat so'z turkumi o'ziga xos ifoda ko'rinishiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasan Anvari, Hasan Ahmadiy "Dastur-e zaboni forsiy" 2008
2. Panj ustod "Dastur-ezaboniforsiy" 1988
3. Negahat Sayidi "Ketob-e forsiy-e qadim" 2014
4. Shariat Muhammadjavod "Dastur-e zaban-e forsiy" 1994
5. Malik Abdusamatov "Fors tili" 2007